XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2022 - yil 1 - iyul VI-58-88-9-132-K/22 Yangiyer shahar hokimligi

Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

Yangiyer shahar hokimining 2022-yil 10-fevraldagi “Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish haqida”gi 01/05-96-sonli taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 28-fevraldagi 01-14-230-sonli hulosasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga bilan tasdiqlangan Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shahar hokimining 2022-yil 10-fevraldagi “Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish haqida”gi 01/05-96-sonli taklifi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 28 fevraldagi 01-14-230-sonli xulosa xati ma’qullansin.

2. Shahardagi bo‘linadigan va yangi tuziladigan mahalla nomlari **1-ilova**ga muvofiq;

shahardagi bo‘linidigan va yangi tashkil etiladigan mahallalarning yer maydoni **2-ilova**ga muvofiq;

shahardagi bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahallalarning aholisi soni

3-ilovaga muvofiq;

shahardagi bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahallalarning chegaralari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (N.Xo‘janboyev), shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi (O.To‘rayev), shahar qurilish bo‘limi (A.Karabayev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, mahallalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Xudoyberganov) fuqarolarning xorijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda mahallalarning bo‘linganligiga va qayta tashkil etilganligiga e’tibor qaratsin.

5. Shahar qurilish bo‘limi (A.Karabayev) shaharda yangi tuzilgan mahallalarga yangi nom yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining sanoat transport, qurilish kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **I.Xo'jayev**

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
1-ilova

Bo‘linayotgan Navro‘zobod MFYning taklif etiladigan yangi nomi va joylashishi to‘g‘risida.

№	**Bo‘linadigan MFY nomi**	**Bo‘lingan MFY nomi**	**Yangi tashkil etilgan MFY nomi**
1.	Navro‘zobod MFY	Navro‘zobod MFY	**Yangiobod** mahalla fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organi

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
2-ilova

Yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining umumiy metr kvadrat maydoni

№	**Navro‘zobod** mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy metr kvadrat maydoni	**Navro‘zobod** mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan metr kvadrat maydoni	Yangi tashkil etiladigan **Yangiobod** mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni
1.	3797294 kv.m	2775741 kv.m	1021553 kv.m

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
3-ilova

Bo‘linayotgan Navro‘zobod M.F.Yning taklif etiladigan yangi nomi va joylashishi to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan MFY jami aholi soni	Bo‘linadigan MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil etilgan fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organi aholi soni
1.	8765	7526	1239

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
4-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

№	Bo‘linadigan **Navro‘zobod** mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Bo‘linadigan **Navro‘zobod** mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilgan **Yangiobod** o‘zini-o‘zi boshqarish organi chegaralari
1.	Xovos tumani Shodiyona MFY Yuksalish MFY	Xovos tumani Shodiyona MFY	Shodiyona MFY, Yuksalish MFY

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
5-ilova

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-58-88-9-132-K/22-son qaroriga
6-ilova